


USA

10 OCTOBER



**INTERNATIONAL  
SIMPOSIUM OF  
YOUNG  
SCHOLARS**



## International Simposium of Young Scholars (USA)

### Table of Content

No	Paper Title	Author Name	Page No
14	International Views and Historical Aspects of the Fight Against Corruption	Yahshilikov Juraboy Yahshilikovich, Khidirov Khoshim Ibodullaevich, Fayzullaeva Klara Abdullaevna	52-55
15	Attracting Financial Resources Formed Investment Resources	Zaynutdinov Ismoil Samariddin ugli	56-57
16	Sa'dulla Siyoyevning "Dashti Qipchoq Lochini Yoxud Muhammad Shayboniyxon" Asarida Biografik Metodning Takomili	Xolmuratova Mohira Egamberganovna	58-63
17	A Brief History of the Science of Perspective	Sharofat Umedullaevna Sobirova	64-67
18	Pedagogical and Psychological Bases of Formation of Spatial Imagination and Creative Abilities in Students	Mehrinov Asrorova	68-70
19	Graphic Beauty Letters, Calligraph	Gulkhay Bakhtiyorova	71-73
20	Social Qualities and Qualities of a National School Teacher	Nigora Istamovna Ibatova, Aysha Ulugbek kizi Ibrokhimova	74-76
21	Современная Лексикография: Основные Тенденции Направления Развития	С. С. Шарипов	77-81
22	The Importance of Uzbek Folk Art in the Education System	Mukhaye Baratovna Azimova, Hamroxon Umid kizi Olimova	82-84
23	Kovul-Capparis Spinosa O'Simligining Sanoatdagi O'Rni, Inson Organizmi Va Immunitetiga Ta'siri	Valiyeva Sevara Ibrohim qizi	85-87
24	Terms Found in Folk and Applied Art and Terms in the Art of Drawing Patterns	Viloyat Rajabovna Tuxsanova	88-91
25	Бошланғич Синф Ўқувчиларининг Жисмоний Сифатларини Ривожлантиришда Миллий Ҳаракатли Ўйинларнинг Роли	Мулладжанов Умид Аҳмедович, Диёров Абдукарим Эркинович	92-94
26	Zamonaviy Ta'limda Mobil Ilovalar Orqali O'qitish Nazaryasi	Farmonova Madina A'zamovna	95-96
27	Methods of Teaching and Educating Young Artists-Miniature Artists	Sherali Naimovich Avezov	97-99
28	Aksonometrik Proyeksiyalarning Asosiy Teoremasi. Dimmetrik Aksonometriya Qurish	Feruza Islomovna Mamurova, Eldor Mustafoev	100-103
29	The Course and Outcome of Pregnancy, Depending on the Causes of Infertility in Marriage	Magzumova N. M.	104
30	Comparative Analysis of Modern Treatment Methods of Uterine Fibroids in the Reproductive Period	Atakhodzhaeva F. A, Ergasheva N. Sh.	105
31	Work on Children with Speech Impediments	Jumanazarova Shamsiyahon Ramatjon qizi	106-107
32	Study of Uzbek and Karakalpak Languages as Sister Languages	P. Urazboyev	108-109
33	The Use of Phrases and Visual Expressions in the Development of Coherent Speech	Olim Eshimbetov	110-112

## Zamonaviy Ta'limda Mobil Ilovalar Orqali Òqitish Nazaryasi

*Farmonova Madina A'zamovna*  
*BuxDU, doktorant*

Zamonaviy ta'lim tizimining asosini yuqori sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'limda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishda, hamda yosh avlodni yuqori saviyada tayyorlashni ta'minlash maqsadida milliy qadriyatlar singdirilgan fanlar bo'yicha elektron o'quv-uslubiy majmuasi yaratish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalar qatoriga qiritilgan. Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilim izlash vazifasini qo'yimoqda. Shuning uchun milliy istiqloq g'oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash.

Ta'limni mobil ilovalar asosida o'qitish ko'proq ta'limning individuallashtirishiga olib keladi. Buning natijasida talaba o'zini mustaqil izlanishi natijasida induvidual ishlash qobiliyati rivojlanadi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari rivojlanadi. Mobil ilovalar tarkibiga kiritilgan nazorat ishlari talabani o'zlashtirish jarayonini monitoringini olib borishi bilan amaliy ahamiyatga egadir. Mobil ta'lim – bu joylashgan o'rindan yoki o'quvchilarning joylashuvining o'zgarishidan cheklanmay mobil qurilmalar orqali elektron o'qishdir. Shunday qilib, o'quv jarayoni tashkiloti uchun zamon va makondan qat'iy nazar mobil ta'lim mobil texnologiyani alohida, hamda boshqa axborot va aloqa texnologiyalari bilan birgalikda qo'llashni nazarda tutadi.

Mobil texnologiyalar to'xtovsiz keng tarqalib bormoqda. Qurilmalar bozorida bunday qurilmalarning ko'plab turlari namoyish etilgan. Odatda mobil qurilmalar deganda eho'ntak komyuterlari, smartfonlar, planshetlar va mobil telefonlar tushuniladi, lekin odamlar kundalik faoliyatida ishlatuvchi boshqa har qanday ixchamlashtirilgan qurilmalar evaziga bu ro'yxatni kengaytirish mumkin. Mobil ta'lim odatda "tarkib bo'yicha yengil" deb hisoblanadi, va ko'proq o'quvchilarga audiomaterillar yetkazib berishda, matnli xabarlar almashinuvida, so'rovlarda qatnashishda, matnli chatlarda, konspekt qilish va ko'rishda ishlatiladi. Shuningdek, mobil ta'lim tarkibiga quyidagi talablar qo'yiladi:

' ' Ixchamlilik – mobil ta'lim tarbiy qismlari aloqadagi ehtimolli uzilishlarni inobatga olgan holda davomiylik bo'yicha qisqa bo'lishi lozim

' ' Mikroergonomikaning yuqori darajadaliği – kichik ekranda ovoz va rasmlarning kichik hajmda va yuqori sifatli bo'lishi. Fayllarning kichik hajmdaliği yuklab olishning tezligini ta'minlaydi.

' ' Har joydaliği – mobil o'qitish tarkibidagi materillarni joylashgan joyidan qat'iy nazar hohlagan joyda olish mumkin. Mobil aloqa va mobil qurilmalar ta'minotchilarining ulkan qamrovi mobil ta'lim xizmatlaridan har joyda va siz uchun qulay paytda foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

' ' Talab bo'yicha foydalanishga ruxsat – tabiatan mobil qurilmalar o'quvchilar uchun talab bo'yicha zarur paytda o'zining maksimal yetkazib berish imkoniyatini ishga solib zaruriy tarkibdan foydalanishni ta'minlaydi.

Mobil ta'lim – bu faqatgina nazariy ehtimollik emas ayni mavjud narsadir. Turli davlatlardan ishtirok etuvchilar va pedagoglar mobil qurilmalar yordamida keng marifiy resurslardan

foydalanish imkoniga ega bo'ladilar, axborotlarni muhokama qilish va axborotlarni boshqa o'quvchilar bilan bo'lishishlari mumkin.

**Mobil ilova** (inglizcha: **Mobile app**) — ma'lum bir platforma (iOS, Android,( Windows Phone va boshqalar) uchun ishlab chiqilgan smartfonlar, planshetlar va boshqa mobil qurilmalarda ishlashga mo'ljallangan dastur. Ko'pgina mobil ilovalar qurilmaning o'zida oldindan o'rnatiladi yoki (ularni App Store,( Google Play va boshqalar kabi onlayn dastur do'konlaridan bepul yoki pullik bilan yuklab olish mumkin.

Dastlab, mobil ilovalar elektron pochta tezda tekshirish uchun ishlatilgan, ammo ularning yuqori talablari boshqa sohalarda ham kengayishiga olib keldi, masalan, mobil telefon va GPS o'yinlari, suhbatlashish, video tomosha qilish va Internetdan foydalanish.

Ushbu atama 2007-yildan beri juda mashhur bo'lib, 2010-yilda Amerika Dialektik Jamiyati tomonidan „Yil so'zlari“ ro'yxatiga kiritilgan.

Mobil ilovalar bozori bugungi kunda juda rivojlangan va barqaror o'sib bormoqda. Statista prognozlariga ko'ra, 2020-yilda mobil ilovalar sanoatining yillik yalpi daromadi \$189 milliarddan oshadi.

Oliy ta'lim muassasalarida “Botanika” fanini o'qitishni takomillashtirish, fanni o'rganishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan, noan'anaviy va interfaol usullaridan keng foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish ijobiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o'qitish mazmuniga mos o'quv-metodik materiallar, ayniqsa, o'yinlar tarzida o'quv-metodik materiallar majmuasini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tadbiq etish yoshlarga ta'lim tarbiya berishdagi dolzarb masalalar qatoriga kiritish

uchun asoslari.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Farmonova M. A. TA'LIM UMUNDORLIGINI OSHIRISHDA MOBIL ILOVALARNING O'RNI//Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 3.
2. Ж.С.Темиров. 9 синф информатика ва ахборот технологиялари фанидан электрон ўқув-услубий мажмуа яратиш методика. БМИ. ГулДУ., 2020 йил.
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Mobil\\_ilova](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mobil_ilova)